

INTEGRATSIYANING DOLZARBLIGI, MAQSADLARI VA  
FUNKSIYALARI

Oxnorova Iroda Baxtiyor qizi  
Yo'ldashaliyeva Nilufar Shavkatjon qizi  
Ro'ziqulova Zahro Qobiljon qizi  
*ADPI talabalari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fanlararo integratsiya, boshlang'ich sinflarda integratsion ta'limni yo'lga qo'yishning ayrim talab va shartlari yoritilgan bo'lib, integratsion darsning umumiy xususiyatlari atroflicha bayon etiladi. Kalit so'zlar: integratsiya, fanlararo integratsiya, ta'lim samaradorligi, boshlang'ich ta'lim, integratsion darslar. Abstract. In this article discussed that, importance of interdisciplinary integration, some of the requirements and conditions for the introduction of integrated education in the primary grades, and described in detail the general features of the integrated course. Keywords: integration, interdisciplinary integration, educational effectiveness, primary education, integration lessons.*

**KIRISH.**

So'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani va madaniyatining ilg'or yutuqlarini jamlagan, o'tmish ajdodlarimiz aql-zakovoti mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lim-tarbiya berish uslublarini shakllantirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi Qonun hamda “Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”, “2008-2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish Davlat dasturi”, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlarstrategiyasida va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishlash, ularni barkamol avlod sifatida shakllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo'lmoqda.



## MATERIAL VA METODLAR

Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o’zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim amaliyoti ko’rsatishicha, maktab ta’limida fanlararo aloqadorlikni yo’lga qo’yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo’layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o’quvchilarning bilimlarni ongli o’zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o’rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o’rta ta’lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg’ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini erkin qo’llash imkoniyatini beradi. Ilm-fan yutuqlari va ularning insonlar hayotidagi o’rni rivojlangan mamlakatlar maktab ta’limi mazmuni va strukturasi ta’sir o’tkazmay qolmaydi. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o’quv soatlari keskin qisqartirildi, o’quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi. Turli o’quv predmetlarini o’qitishda soatlarning qisqarishi, o’quv materiallari mazmunining ilmiy jihatdan murakkablashishi natijasida o’quvchilarga qo’yilayotgan talablar kuchaydi, ta’lim sifatida birmuncha pasayishlar kuzatilmoqda. O’quvchilar o’quv materiallarini o’zlashtirishida sodir bo’layotgan bunday pasayishlar yosh avlodning intellektual rivojlanishiga ta’sir etmay qolmaydi. Bu holat esa o’qituvchilardan o’quvchilarga bir fan doirasida bog’liqliklar asosida turli hodisalarni o’rganishni taqozo etadi. Tabiat hodisalarini, ularning tuzilishi, mohiyati va funksiyalarini, qonuniyatlarini o’rganish o’quvchilar tafakkurida qiyoslash, analiz va sintez, abstraktsiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida fanning tabiat va jamiyat to’g’risidagi yangi fundamental hamda amaliy tadqiqiga oid yo’nalishlarini rivojlantirish, fani integratsiyasi darajasida ilmiy jihatdan savodxonligini va mahoratini oshirish shu asosda umumiy o’rta ta’lim maktablarida ta’lim va tarbiya mazmunini yangilash, sifat va samaradorligini ko’tarish, har bir fan bo’yicha o’quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko’nikma va malakalarini takomillashtirish ta’kidlangan. Erkin fikrlovchi, ijodkor, mamlakatimizning mustaqillik mafkurasiga sadoqatli bo’lgan barkamol shaxsni tarbiyalash boshlang’ich ta’lim samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda fanlararo aloqadorlik qonuniyatlarining yaratilishi,



aloqadorlik tizimining tarkib topishi ta’limda istiqbolli vazifalar yechimini ta’minlaydi.

### NATIJA VA TAHLIL

Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqalashtirilgan holathukm sursa ham amaliyotda integratsiya, o’zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. So’nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarini hal etishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir. Boshlang’ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo’g’in vazifasini o’qituvchining o’zi amalga oshiradi. U bolalarning matematikaga, yozishga, tabiat ko’pgina boshlang’ich tushunchalarga va yana ko’pgina narsalarga o’rgatadi. O’z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang’ich sinflarda bir o’qituvchining dars berishini, integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo’ladi. Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo’lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning birlaridan yuz o’girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o’qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Muammoning bunday qo’yilishi integratsiyaning turli ta’lim pog’onalari turli xususiyatlarga ega ekanligini ko’rsatadi. Boshlang’ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko’rish maqsadga muvofiq. Ta’limning keyingi pog’onalari u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Bugungi kunda, ya’ni ta’lim-tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o’qituvchining ishlash tizimi tubdan o’zgarimoqda va pedagogik texnologiyalar, integratsiya-lar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo’llanilmoqda. O’quv fanlararo aloqadorlik ta’minlangan sharoitda o’quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok qilish qobiliyati, faolliklari, iziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O’quv fanlararo aloqadorlikni turli o’quv fanlari bo’yicha o’quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta’minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim. «Integratsiya» so’zi lotincha integratio-tiklash, to’ldirish, «integer» butun so’zidan kelib chiqqan. Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi: birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog’liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon; ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o’zaro aloqadorlik va nihoyat o’zaro bir-birini to’ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda



chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishtalab etadi. Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, etuk shaxsni shakllantirishga imkon beradi. Zero u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan ob'ektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differensiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha. Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar: - o'quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish; - turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash; - ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar. II. 1. Integratsiyalashgan ta'lim Jahon tajribasida bugungi kunda insoniyat jamiyati, shuningdek, mustaqil respublikamiz xalqi oldida turgan ijtimoiy-itisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarni o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabatlariga bog'liq. Chunki, ularning barchasi mohiyati, mazmuni, tabiati, shakli va ko'lamiga ko'ra tizimlilik xarakteriga ega bo'lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, yechimi topiladi. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya ishida ham tizimli yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutadi. Ko'p sonli manbalar, xususan, pedagogik amaliyot sohalarining tahlili ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Bular asosan, bizning fikrimizcha, o'rganilayotgan obyektlarning ba'zi bir jihat va xususiyatlarini lavhalar (fragment) shaklida o'rganish natijasida yuzaga kelib, mantiqan bog'lanmagan



va tizimlashmaganligidadir. Amaliyotdagi bunday holatlarni bartaraf etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq G.Spenser tomonidan qoʻllanilishiga karamay, unga davr taqozosiga koʻra yaqin paytlargacha yetarli ahamiyat berilgan emas.

Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosi olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning oʻzaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli rus psixologik olimi G.S. Kostyuknin fikricha: “Tabaqalanish differentsiatsiya – ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni koʻpayishiga olib kelsa, integratsiya – tartibga keltirish, subordinatsiya va uning natijalarini maʼlum ketmaketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yoʻli bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil boʻladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida boʻlgan elementlardan sintezlash yoʻli bilan hosil qilinadi”. Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, oʻzaro aloqadorlik va nihoyat oʻzaro bir-birini toʻldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, oʻquv predmetlari mazmunini eng kamida taʼlim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, oʻrganilayotgan oʻquv predmetlari doirasida maʼlum didaktik birliklar orasida oʻrnatilib, ularni oʻrganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni koʻzda tutadi, bundan farqli oʻlaroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan oʻquv predmeti yoki integratsiyalab oʻrganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu oʻz navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat koʻrsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar oʻrganilayotgan obyektning barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab yetish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni boʻlgan tabaqalashtirish (differentsiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha. Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yoʻnalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar: a) oʻquv predmetlari va fanlar



turkumi doirasidagi mazmuni integratsiyalab o'rganish; b) turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash; v) ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar. Bu yo'nalishlarning har birining aniq o'z maqsadi bo'lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlarni talab etadi. Amaliyotda ulardan uyg'un holda foydalanilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ham shu o'rinda eslatib o'tish lozim. Pedagogika fanida XX asrning 80- yillaridan boshlab integratsiya, “o'zaro aloqadorlik”, “o'zaro ta'sir”, “sintez” kabi tushunchalar qo'llanilgan ilmiy ishlar paydo bo'lib, ta'lim-tarbiya ishida integratsiya muammosining dolzarbligi sezila boshlangan. Hozirgi paytga kelib ta'limtarbiya ishiga integrativ yondashuv g'oyasi xususiy fanlar doirasida chegaralanib qolmasdan, umumpedagogik ahamiyatga ega masalaga aylandi.

### XULOSA

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, potensial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (sub'ekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi. V.A. Slastenin, N.M.Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka tahlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik tahlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda tahlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar. O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin: birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda esa o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi. O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
2. Asauliyuk E.P. Integrirovanny podxod v obuchenii mladshix shkolkov // Perspektivy nauki. 2011. №10 str.222-226
3. Jurayev, J. S. O. (2021). ABU ALI IBN SINONING



FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14. 4. Sulaymonov, J. (2021) ABDURAHMON IBN XALDUNNING TAMADDUN TARAQQIYOTI HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMIYAT TAHLILI//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R. 5. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.

6. Yusupov E. *Inson kamolotining ma’naviy asoslari*. – Toshkent, Universitet, 1998 7. Hasanboyev J., To’raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. *Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi*. – Jizzax: 2007.

9. Abdusamatov, H., & QURBANOVA, M. (2022). Some social and psychological advice for families who have been destroyed. In *Conference Zone* (pp. 22-24).

10. Mamurjonovna, N. D. (2020, June). The concept of psychological service and its controversial issues in family. In *Archive of Conferences* (Vol. 2, No. 2, pp. 34-36).

11. Nuraliyeva, D. M. (2020). Examining the orientation of women in the field of psychosocial service for the family and the empirical analysis of psychological qualities. In *International scientific and practical conference Cutting Edge-science Primedia E-launch page115-116*. USA Conference Proceedings (Vol. 6).

12. Nuraliyeva, D. M. (2020). THE PROBLEMS OF DEVELOPING SOCIAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN THE FAMILY. *Theoretical & Applied Science*, (1), 711-713.

13. Nuralieva, D. M. (2020). THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 405-410).

14. Mamurjonovna, N. D., & Nurislom Ulug'bek o'gli, K. (2022). A STUDY OF THE SOCIAL PERCEPTIONS OF CHILDREN OF HAPPY AND CONFLICTED FAMILIES ABOUT THE FUTURE. In *Conference Zone* (pp. 9-11).

15. Нуралиева, Д. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. *Uzbek Scholar Journal*, 6, 39-43.



16. Нуралиева, Д., & Абдусаматов, Х. (2021). Ajralish arafasidagi oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. *Общество и инновации*, 2(10/S), 493-498

17. Mamurjonovna, N. D., & Abdugarimova, M. R. (2021, July). ON THE PSYCHOLOGICAL CRITERIA AND ORIGINAL FACTORS OF DISPUTES BETWEEN YOUNG PEOPLE. In *Archive of Conferences* (pp. 50-55).

Nuraliyeva, D. M. (2021). PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO FAMILIES ON THE VERGE OF DIVORCE. *Экономика и социум*, (10 (89)), 186-189.

18. Mamurjonovna, N. D. (2022). NIKOH OLDI OMILLARI VA OILA QURISH MOTIVLARINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYALARI: Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa dokori (PhD). Asqarova Odinaxan Mamatxonovna Psixologiya magistratura yo'nalishi 2-kurs talabasi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (12), 312-316.

19. Нуралиева, Д. М. (2022). OILALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: Нуралиева Дилдора Мамуржонова ФарДУ психология фанлари бўйича фалсафа доктори,(PhD). *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (11), 370-377.

20. Mamurjonovna, N. D. (2022). O'SPIRINLARDA MA'NAVIIY QADRIYATLARNI SHAKLLANISHIDA OILA MUXITINI TUTGAN O'RNI: Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna FarDU psixologiya fanlari bo'yicha falsafa dokori,(PhD) Kenjayeva Dilnozaxon Sadirdinovna Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) 2-kurs magistranti. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (12), 293-298.

21. Axrorov, P. Q., & Nuraliyeva, D. M. (2022). AMERIKA PSIXOLOGIYA MAKTABI NAMOYONDALARINING ZAMONAVIIY TADQIQOTLARINING OZIGA XOS JIHATLARI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(10), 59-61.

